
Paxtakorlar huzurida bir kun

Ko'p sonli paxtakor fermerlar va dala mehnatkashlari intizorlik bilan kutgan damlar yetib keldi. Mavsum davomida fidokorona mehnat qilgan paxtakorlar keng dalalarda pishib yetilgan hosil yig'im-terimini zo'r uyushqoqlik bilan boshlab yubordilar. Quvonarlisi shundaki cho'l hududidagi "Oqqul chamani", "Buloqboshi shuhrati" va "Shoxruxbek samandar" kabi fermer xo'jaliklari bu yil 36 tonnadan 40 tonnagacha sifatli hosilni qabul maskanlariga topshirib, el-yurt oldida bergan va'dalarining ustidan chiqish uchun terimda peshqadamlik ko'rsatmoqdalar. Ayni paytda dala terimchilari uchun issiq ovqat tashkil etilgan. Terilayotgan hosil dalaning o'zida kiloma-kila o'lchab olinmoqda. Yig'im terim paytida ilg'or terimchilarni rag'batlantirib borish, paxta pullarini vaqtida berish va ular o'rtasida o'zaro musobaqani yanada avj oldirish, hosil terimi sur'atini oshishini ta'millaydi, albatta. Tuman hokimi va sektor rahbarlari paxtakor fermerlarimiz dalalarda bo'lib, hosil yig'im terimining borishi terimchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishishdi. - Qadrli dala peshqadamlari! Sizlarning fidokorona mehnatingizni doimo qadrlab kelganmiz. Bu mavsumda ham ilg'orlarga qimmat baho sovg'alar beriladi. Maqsadimiz ezgu: Tezroq Rishton paxta xirmonini tiklash. Ishonamizki, paxtakor fermerlar zimmangizga olgan rejalarni tez kunda oshirib bajarasizlar, -deydi tuman hokimi dala ilg'orlari bilan uchrashuvda. Shuni aytish joizki, hozirgi g'animat kunlarda paxtakorlarga madadkor bo'lish eng xayriya ishlardandir. Tuman hokimi va sektor rahbarlarining paxtakorlar huzurida o'tgan bir kunlari o'z samarasini berdi. Terimchilar alohida g'ayrat va ishtiyoq bilan hosil yig'ishda davom etdilar. "Oqqul chamani" fermer xo'jaligi paxta yig'im-terimi mavsumida yuzlik marrani zabt etdi.

Rishton tuman hokimligi Axborot xizmati

2022-09-08 11:23:34